

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA INSONPARVARLIK
FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY- METODOLOGIK
ASOSLARI***Talabova Dilrabo Tolibovna**Farg'ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Ushbu maqola o'quvchi shaxsida insonparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish orqali insonparvarlik tayanch fazilatlarini tarkib toptirish hamda pedagogika nazariyasining asosiy tushunchalaridan «ta'limni insoniyashtirish», «ta'limni insonparvarlashtirish», «ta'lim-tarbiya jarayonga insonparvar yondashuv» kabi tushunchalar bo'shlang'ich ta'lim jarayonidagi dolzarb masalalardan ekanligi haqida yozilgan

Kalit so'zlar: Insonparvarlik, boshlang'ich sinf, ta'lim, vatanparvarlik, muruvvat, saxovat, sofdillik.

**ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ
ГУМАНИТАРНЫХ КАЧЕСТВ У УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ***Талабова Дилрабо Талибовна**Ферганский областной национальный центр подготовки педагогов по новым методикам, преподаватель кафедры «Методика дошкольного и начального образования»*

Аннотация: В данной статье говорится о формировании основных гуманитарных качеств путём формирования гуманистических чувств у учеников, также написано, что такие понятия, как "гуманизация образования", "гуманистический подход к образовательному процессу" из основных понятий теории педагогики являются актуальными в процессе начального образования.

Ключевые слова: человечность, начальный класс, образования, патриотизм, доброта, великодушные, честность.

**HUMANITY IN PRIMARY CLASS STUDENTS
THEORETICAL-METHODOLOGICAL BASIS OF THE FORMATION OF
THE CHARACTERS***Talabova Dilrabo Tolibovna**Teacher of the Department «Methodology of Preschool and Primary Education» of
the Fergana Region National Center for Training Pedagogues in New Methodologies*

Annotation: This article talks about the formation of basic humanitarian qualities through the formation of humanistic feelings among students, it is also written that such concepts as "humanization of education", "humanistic approach to the educational process" from the basic concepts of the theory of pedagogy are relevant in the process of primary education.

Key words: Humanitarianism, elementary school, education, patriotism, kindness, generosity, honesty.

O'zbekiston «Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari» tamoyili asosida taraqqiyot yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddatli ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan aholi, ayniqsa yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq vazifalarni samarali amalga oshirish ularni tinch-osoyishta hayot uchun eng zarur tayanch kompetentsiyalar bilan ta'minlashni ijtimoiy fazilatlarini yoshlarga mos, bosqichma-bosqich amalga oshirish zaruratini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Mazkur vazifani amalga oshirishda uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini hisoblangan boshlang'ich ta'limni samarali tashkil etilishi navbatdagi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatlarga erishishning muhim kafolati bo'la oladi. Zero, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini umumiy o'rta, o'rta maxsus hamda oliy ta'limda tahsil olish chog'iga yanada mustahkamlab,

sayqallab boyitib borish, shaxsda, qat'iy hayotiy pozitsiyani mustahkamlash nazariyani shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi. Ana shu jihatga ko'ra boshlang'ich sinfda ta'lim-tarbiya jarayoni maqsadga muvofiq tashkil etish, ayniqsa, uni samarali bo'lishiga erishish o'ta mas'uliyatli jarayon hisoblanadi. Insonparvarlik tarbiyasining mazmun mohiyati, shakl va vositalari, uning asosiy g'oyalari va yondashuvlar qator olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan.

Ilmiy adabiyotlarda «insonparvarlik» atamasiga turli-tuman sharhlar keltirilgan. Ta'lim-tarbiyaning insonparvarlik tamoyillari to'grisida turli nazariyalar mavjud. Tarbiyani kattalarning (o'qituvchilar, murabbiylar, ota-onalar) bolalarga ta'sir ko'rsatishi sifatida tushunish eng ko'p tarqalgandir. Bunda kattalar to'g'ri deb hisoblaydigan ideallar, maqsadlar, vazifalar, normalar, talablarga muvofiq ta'sir ko'rsatish ko'zda tutiladi, albatta.

Boshlang'ich sinfdagi ta'lim-tarbiya jarayoni yaxlit jarayon bo'lib, uni uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina ruhan va jismonan sog'lom, Vatanga sadoqatli burch va mas'uliyatga ega, insoniy fazilatlar sohibi bo'lgan, ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ulari barqaror shakllangan yoshlarnitarbiyalash imkonini beradi. Buning uchun esa boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish hamda boshlang'ich sinf o'quvchilar rejasiga kiritilgan»tarbiya» fani orqali o'quvchilarda ma'naviy-tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, malaka, ko'nikmalar ta'lim mazmuniga singdirish bugungi kunning dolzarbvazifalaridan hisoblanadi.

MustaqilO'zbekiston davlati istiqlolning dastlabki kunlaridan boshlab, o'zining ichki va tashqi siyosatida insonparvarlik tamoyillariga tayangan holda o'z xalqi hayotini, jamiyat faoliyatini shu asosda tashkil etdi.

Mamlakatimizda inson manfaatlarini himoya qilishga, uni qadrlashga, har bir insonning shaxsiy barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladigan demokratik munosabatlar va qadriyatlarga suyangan huquqiy tizim shakllantirilmogda.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadiva harakatlantiruvchi kuchi inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish orqali noyob milliy qadriyatlar hisoblangan insonparvarlik, iymon-e'tiqod, rahm-shavqat, muruvvat,diyomat, or-nomus kabi fazilatlar egalarini tarbiyalashdir.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurishda mehr-muruvvat tamoyili,bozor munosabatlari sharoitidagi ijtimoiy himoyada mehr va muruvvatning namoyon bo'lishini Respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda har bir yilga nom berish orqali qabulqilinayotgan dasturlar mazmunida ham aks etib bormogda.

O'zbekistonda barcha sohalarda olib borilayotgan chuqur islohotlardanko'zlangan asosiy maqsad - «Inson manfaatlari hamma narsadan ustun» deganoddiy vaaniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyata ega bo'lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat»

O'zbekiston RespublikasiKonstituttsiyasining18-moddasida»O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquqva erkinlikga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar» deyiladi. Qonundagi bu fikrlardan ko'rinib turibdiki,insoniylikni ta'minlash uchun insonga xos bo'lgan barcha xislatlari e'tibordan chetga qolmaganligini ko'rish mumkin. Chunki, insonparvarliknormalari va burchlarining buzilishi o'zaro tenglikka salbiy ta'sir ko'rsatib, shaxs ma'naviy tarbiyasini izdan chiqishiga olib keladi. Bunga tarixning o'zi ham guvoxlik berib, quydagi dalillarni keltirish mumkin.

«Inson tarbiyasi, insonni nuqsonlar,gunohlardan qutqarish ulug' ajdodlarimizning qayg'usi bo'lib kelgan. Ular savob va gunoh, soya va nur, rahmon va shayton, xayr-u shar chegarasida yaratilgan inson degan mubham xilqatni anglash, unga rahmoniy va shaytoniy quvvatlarni qachon, qayerdakuchga kirishi, bu kuchlarning sababi nima ekanligini tushunishga jiddiy ahd qilganlar».

Insonparvarlik g'oyasi, unga e'tiborning qaratilishi Evropada XV-XVI asrlarda keng tus olgan bo'lsa, O'rta Osiyoda esa IX-XII asrlarda to'lashakllangan edi. Ularning insonparvarlikni targ'ibqilgan adabiy-ilmiy metrosidagi nazariy fikrlari bugungi kunda ham shaxs ma'naviy tarbiyasining asosini tashkil etmogda. Navoiy ijodining markazidainsonlar to'g'risida gamxo'rlik qilish, saxovat markaziy o'rinni egallaydi:

Odami ersang demagil odami onikim, yo'q xalqg'amidin g'ami.

A.Navoiy ijodidagi insonparvarlik g'oyalari insonni sevish, unga gamxo'rlik qilishg'oyasi barcha bunyodkor mafkuralarning asosini tashkil etadi. Navoiynazdida inson kalbi musulmon olami uchun eng muqaddas go'sha hisoblanib:

Kimki bir ko'ngli buzukni xotirin shod aylagan

Onga borki ka'ba vayron bo'lsa obod aylagaydeydi. Navoiyning insonparvarlik g'oyalari XIV-XV asr Markaziy Osiyoda ro'y bergan uyg'onish davrining ma'naviy asosi bo'lishi bilan buyuklik kasb etadi.

Ma'naviyatimiz, milliy ruhimiz, urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizga ko'rk bag'ishlovchi xususiyatdir» Pedagogika fanlari doktori, professor O.Musurmonova

insonparvarlikka quyidagicha ta'rif beradi: «Insonparvarlik- insonning sharafi, vijdoni va imonining mahsuli» Insonparvarlikka ta'rif berish bilan birga O.Musurmonova insonparvarlikning tarkibiy qismlarini quyidagicha izohlaydi: insonparvarlik negizida mehr-shavqat, muruvvat va oqibat, saxiylik, saxovat, diyonat, qanoat, himmat, adolat, sabr-toqat, tavoze, mehribonlik, sofdillik, rostgo'ylik, hamfikrlik, ziyraklik, xojatbarorlik kabi ma'naviy-axloqiy xususiyatlar o'z ifodasini topadi.

O'quvchi shaxsida insonparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish orqali insonparvarlik tayanch fazilatlarini tarkib toptirishda pedagogikanazariyasining asosiy tushunchalaridan «ta'limni insoniylashtirish», «ta'limni insonparvarlashtirish», «ta'lim-tarbiya jarayonga insonparvaryondashuv», «hamkorik pedagogikasi» kabi tushunchalar nazariy asos hisoblanadi. Ta'limni insoniylashtirish- ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsining ustuvor o'rin tutishi, uning shaxsi, xohish istak va qiziqishlarini hurmat qilish, qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil hayotda o'z o'rnini topib olishi uchun sharoit yaratish.

Ta'limni insonparvarlashtirish - bu o'qituvchi va o'quvchilarning O'zaro hurmatga asoslangan munosabatlari, har bir insonning huquqlarini hurmat qilish, uning salomatligini saqlash va mustakamlash, shaxsiy muvaffaqiyatga erishish hissi, shaxsiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayoni. Ta'lim-tarbiya jarayoniga «insonparvarlik yondashuvi insonning ong litajribasi, uning yuksak qadriyatlarini ongli o'rganishga yo'naltirilgan. Shaxsning qiziqishlari, his-tuyg'ulari, kayfiyati, xarakteri, moyilliklarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish mazkur yondashuvning asosini tashkil etadi»

Xamkorlik pedagogikasi- insonparvar tarixiy g'oyalar asosida milliy pedagogikaning asosiy yo'nalishi, uning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat: hamkorik munosabati, tarbiyalanuvchilar bilan birgalikdagi faoliyat, majburlashsiz o'rgatish, erkin tanlov, yirik bloklarda o'qitish, o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash, shaxsiy yondashuv.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish orqali ularda insonparvarlik fazilatlarini rivojlantirishda har bir o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudgakeltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustakamlash, o'quvchilik ijtimoiy maqomiga mas'uliyat bilan yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu jarayonda o'quvchi sinfdoshlariga xayrixox bo'lib, ta'lim jarayonidagi o'quv topshiriqlarini puxta o'zlashtirishga, sidqidildan aqliy mehnat qilish orqali har bir o'quvchining o'qishdagi muvaffaqiyati sinf jamoasining muvaffaqiyatiga olib kelishini tushunib yetishga zamin yaratadi. Bu esa o'quvchilarda ta'lim jarayonida hamfikir bo'lish, qo'yilgan vazifa yechimini topishda birgalikda qayg'urish, vazifa yechimini maqsadga muvofiq birgalikda ijod qilish malakasini topganidan huzurlanish, shakllantirishga imkon beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kuzatish shuni ko'rsatdiki, bu yoshda o'quvchilar juda qiziquvchan bo'lib, ularning bu qiziqishlari atrof olamni (ijtimoiy hayotni, tabiatni) undagi o'zgarishlarni idrok qilishga qaratilgan bo'lib, ushbu jarayonda ko'rgazmali obrazli tafakkur boshlang'ich sinf o'quvchisining tafakkurining asosiy turi ekanligi ta'kidlandi. Masalan, «Sen qanday insonni o'rtoq, do'st deb hisoblaysan» degan savolga o'quvchilar sinfdagi o'rtoqlarining ismini aytib javob berdilar. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiya jarayonida ko'rgazmalilik, konkretlikka asoslanish zarur. Ayniqsa o'quvchilarda insoniylikka oid tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishda hayotiy dalillar, asarqahramonlari, buyuk siymolar hayotidagi yorqin lavhalar, yoki ijtimoiy hayotimizda sodir bo'layotgan voqea-hodisalardan misollar keltirish orqali o'quvchi ongiga tushuncha va tasavvurlarni yetkazish muhim hisoblanadi.

Ayniqsa o'quvchining axloqiy-hissiy tuyg'usiga tasir etuvchi solishtirish, qiyoslash, tahlil qilish, sintez qilish orqali nafaqat o'quvchining axloqiy ong va tushunchasini balki

uning hissiy olamini hammaqsadga muvofiq shakllantirish mumkin. 1-sinfidagi «Tarbiya fani» darsligidagi rasm vaillyustratsiyalarni mazmunini qiyoslash orqali o'quvchida rasm mazmunidan qoniqish, qoniqmaslik, kayfiyatni ko'tarish yoki kayfiyatni tushib ketishi, yaxshi kurish, nafratlanish, zavqlanish, hayron qolish, g'ururlanish, minnatdor bo'lish kabi ijobiy va salbiy emotsional hissiy holat ko'rinishlarini yuzaga kelishiga rag'batlantiradi, yo'naltiradi. Boshlang'ichsinf o'quvchilaridainsonparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirishda sinf o'quvchilari jamoasidagi tenglikka asoslangan ijobiy muhit, ko'tarinki kayfiyat, o'zaro do'stona munosabat, muloqotgakirishuvchanlik, bir-birini tushuna olish va kechira olish, toqatlilik, bag'rikenglik, qiyin daqiqalarda bir-biriga ko'maklashish mas'uliyatlilik, rahmdillik kabilarni kuzatildi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida bir-birlarini yaxshi bilib olishlariga, bir-biriga nisbatan xayrixoh bo'lib o'zaro do'stlashishga, sinfdoshlarining o'zlariga bo'lagan munosabatlarini aniqlanishiga, o'zlariga tashqaridan baho berish imkoniyatiga ega bo'lishlariga, ijobiy hamkorik muhitiga ega ekanliklariga, o'zlari vasinfdoshlariga nisbatan ishonch hissinu tuyganliklarida namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi idrokning aniqligi, fahmningtezligi zukkolik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu xususiyat ularda atrofdagi voqea-hodisalarga faol munosabatda bo'lish, idrok qilinadigan narsalarni his-tuyg'u bilan, diqqat-e'tibor bilan qarash, taqlid qilish va tasavvur etish jarayonida shakllana boradi. Shuning uchun bu davrda bolalarning muloqotga bo'lgan ehtiyojini ijtimoiy ehtiyojga aylantirishijobiy natijalarni kafolatlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'ularini maqsadga muvofiq shakllantirishda o'qituvchi o'quvchilarning do'stlashishi, bir-birinitushunishi, ijobiy xulq-atvorga kirishishlari uchun zamin xozirlashi kerak. O'quvchilar o'zaro baland ovozda gapirmasliklari, bir-biriga nisbatanijobiy munosabatda bo'lishlari, zarur vaziyatlarda o'zlarini tuta bilishlari va xatti-harakatlarini nazorat qilishni ta'minlashi muhim. O'quvchilarda hayotiy tajribaning yetishmasligi tufayli ular orasida ishchan, do'stona muloqot o'rnatish murakkab kechadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarni hamkorlikdagi faoliyatga jalb etish chora-tadbirlarini ishlab chiqishi va qo'llashi, ularning individual xususiyatlarini chuqur tahlil qilishi va har tomonlama o'rganish kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish orqali ularda insonparvarlikfazilatlarini rivojlantirishda har bir o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustakamlash, o'quvchilik ijtimoiy makomiga mas'uliyat bilan yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilganadabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish Konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni.

2. Ibragimova X.I, Yo'ldoshev U.A, Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya-T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2007.-410b

3. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari.,-t., «o'qituvchi», 2000 y

4. Yunusova Guzal Sultanovna. (2022). Psychological mechanisms of crime prevention among teenagers (Family aspect). American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 9, 266–273. Retrieved from <http://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/303>